

TA`LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION BOSHQARISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Navro`zova Zebiniso Botirovna

*Buxoro davlat pedagogika instituti
pedagogika va psixologiya yo`nalishi magistranti*

Ta'lism tarbiya masalalari azal-azaldan sharq xalqlarida bir-biri bilan o`zaro chambarchas uygunlikda rivojlanib borgan. Bu ikki so`zni aslo ayro tasavvur qilib bo`lmaydi.

Taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so`zleri naqadar haqiqat ekanini yaxshi anglaymiz. Tarbiya masalalariga e'tiborsiz qaralgan vaziyatda yuzaga keladigan ko`ngilsizliklar ham, u keltirib chiqaradigan zararli oqibatlar ham barchamizga ayon.

Buyuk vatandoshimiz Imom G`azzoliy shunday deydi: "Bolalar ota-onalariga berilgan bir omonatdir. Bolaning qalbi har qanday naqshu tasvirdan xoli bir qimmatbaho gavhardir. U qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, qayoqqa bukilsa, egiladi. Agar yaxshilikka o`rgatilsa, shu bilan o`sadi va dunyoyu oxiratda saodatga erishadi. Uning sa`vobiga ota-onasi ham, har bir muallimu ustozlari ham sherik bo`ladilar. Agar yomonlikka odatlantirilsa, hayvonlardek o`z holiga tashlab qo`yilsa, oxir-oqibat halok bo`ladi. Gunohi esa uning tarbiyasi uchun javobgar bo`lganlarning gardaniga tushadi".

Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko`ra, inson o`z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo`lgan davrda oladi. Bu davr bola hayotida mакtabgacha ta'lism muassasalari ta'lism – tarbiyasi bilan uzviy bog`liqdir. Ana shu dalilning o`zi bolalarimizning etuk va barkamol shaxs bo`lib voyaga etishida bog`cha tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko`rsatib turibdi.

Chunki, ushbu davrda uning xotirasi eng yuqori darajada shakllanishi aniqlangan. Ana shu nuqtai nazardan kelib chiqib, yurtboshimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan xar bir yosh avlodning mакtabgacha ta'lism muassasalarida kamida bitta xorijiy tilni o`rganib so`ng mакtabga yo`l olishiga erishishga alovida e'tibor qaratib kelmoqda.

Mustaqillik yillarida respublikada ta'lism-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo`nalishlari darajasiga ko`tarildi. Ta'lism-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga alohida e'tibor qaratilib, farzandlarimizning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim va kasb-

hunarlarni egallashi, jismonan va ma'nan etuk insonlar bo`lib ulg`ayishi, ularning qobiliyat va iste'dodini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat va fidoyilik tuyg`ularini yuksaltirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimizning 2017-yil 7-fevraldagagi “O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risida”gi farmonida ijtimoiy soha, xususan, ta'lif va ilm-fan sohalarini takomillashtirish borasida qator vazifalar belgilangan. Farmonga binoan ta'lif va ilm-fan sohasini yanada rivojlantirish borasida kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Bunda xalq ta'limi tizimida keng islohotlarni amalga oshirish orqali ta'lif-tarbiya sifatini oshirish, yangi maktab binolari barpo etish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o`quv-laboratoriya uskunalarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va o`quv-metodik qo'llanmalar bilan to`liq ta'minlash kabi qator masalalar amalga oshirilishi ko`zda tutilgan. Umumiy o`rta ta'lif sifatini tubdan oshirishda qator fanlar, jumladan, Jismoniy tarbiya, chet tillar, matematika, fizika, informatika, kimyo, biologiya fanlarini chuqurlashtirilgan tarzda o`qitishga alohida e'tibor qaratiladi.

Bundan tashqari muxtaram Prezidentimiz tomonidan mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog`lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Jumladan, maktabgacha ta'lifning zamonaviy tizimi, 11 yillik umumiy o`rta ta'lif joriy qilinmoqda, zamonaviy oliy ta'lif muassasalarini hamda nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Bu esa O`zbekistonda yashayotgan, aholimizning 64% ni tashkil etib kelayotgan yoshlarning orzusiga aylangan g`oyarning amaldagi ifodasi desak mubolag`a bo`lmaydi. Bu inkoniyatlardan samarali va unumli foydalangan har bir yosh jahondagi eng rivojlangan mamlakatlardagi tengdoshlari bilan xar tomonlama tenglashmoqda. Buni isbori sifatida shuni aytish mumkinki, mustaqillik yillarida mamlakatimizdan jami 253 nafar o`quvchi turli fanlar bo`yicha xalqaro olimpiadalarda qatnashib, oltin, kumush, bronza medali, shuningdek, yuzdan ortiq diplomga ega bo`lgan.

Xulosa qilib aytganda, yosh avlodga zamon talablari asosida bilim berish, ularni jasmonan va ma'nan barkamol etib tarbiyalash, mamlakatimizni har tamonlama taraqqiy ettirish, xalqimizni turmush faravonligini oshirishda eng muhim qadamlar tashlandi. Mazkur vazifalarni hayotga izchillik bilan tadbiq etishda yurtimizning har bir fuqarosidan alohida mas'uliyat bilan burchlariga sadoqat bilan yondashgan holda umumiy

mushtarak maqsadlarimizga erishishda bir tanu, bir jon bo`lib harakat qilishimiz zarur bo`ladi.